WORLDLY KNOWLEDGE
INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR ( Research bib ) – 7,293

***Nazarova Jasmina Alisher qizi***

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 5-22 guruh talabasi*

# XALQARO BAHOLASH DASTURLARI, ETIMOLOGIYASI VA AFZALLIKLARI PRSA XALQARO BAHOLASH DASTURI MAZMUN VA MOHIYATI

**Annotatsiya:**Maqolada ta'lim tizimidagi xalqaro baholash dasturlarining afzalliklari, turlari va etimologiyasi haqida bir qator ma'lumotlar berilgan xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning afzallilari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:**Xalqaro baholash dasturlari etimologiya, OESD, FEA, PFSA, PLRLS, TALFS, TFMMS, TLMS, PFAAC kirishi.

Ta'lim tizimining mazmuni mohiyati hayotimizning jamiyatining moddiy, madaniy taraqqiyotig kata ta'sir ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim siyosatim ta'lim sifati, ta'lim tizimidagi xalqaro tajribalarga lohida e'tibor qaratilib, bevosita xalqaro baholash tadqiqotlariga ham qatnashish jarayoni jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda ta'limning sifati, saviyasi va darajasini aniqlash va o'rganishga qaratilgan bir qator xalqaro baholash dasturlari mavjud bo'lib ular ko'pgina rivojlangan davlatlarda ta'lim sifatini yanada oshirishda kata ahamiyat kasb etmoqda iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTT yoki OECD Yevropadagi davlatlar birlashmasi bo'lib, ushbu tashkilotga a'zo davlatklarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yuksaltirish aholi turmush darajasini yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni saqlashni nazarda tutadi. IHTT 1948-yilda AQSH tashabbusi bilan tuzilgan bo'lib bu tashkilotni tuzish haqidagi konvensiya 1961-yil 1-oktaybrdan kuchga kirgan. (2)

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat.

-ish o'rinlari yaratish

-xalqaro raqobatbardoshlikni boshqarish, ayniqsa, global ishlab chiqarish va savdo uchun chegaralarning ochilishi jarayonida hukmatlarga iqtisoiy samaradorlik va sifat tizimlarini oshirishga ko'maklashish

-Talim orqali inson kapitali o'sishini ta'minlash (3.14) .

Ushbu tashkilot nugungi kunda bir nechta xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilar savodxonligini baholash, uning qay darajada samarabeayotganligi haqida ma'lumotlar to'plab, tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida reyting ko'rsatkichlarini e'lon qilib bormoqda. Bugungi kunda IHTT tashkilotiga a'zo davlatlar soni ochib bormoqda. O'zbekiston ham IHTT tashkilotiga a'zo davlatlar qatorida hisoblanadi.

Tizimini yuksak cho'qqilarga ko'tarib ta'lim tizimi yetuk davlatlar qatoriga qo'shilishni o'z oldiga maqsad qilib o'z oldiga qo'ydi. O'zbekiston ta'lim tizimi ham raqobat bardosh davlatlarnikidek bo'lishni rejalashtirmoqda.

IHTT davlatlari 1950 yillarda turli ta'lim tezimlari statistic tahlil qilishni boshlagan. Ushbu statistikaning maqsadi davlatlarning ta'limini rejalashtirish orqali malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarni hozir va kelajakda ta'minlashdan iborat bo'lgan. Bu statistika iqtisodiy nuqtai nazardan, shuningdek, ijtimoiy siyosiy jihatdan ham kata ahamiyatli bo'lib ta'lim oluvchilarning teng huquqlilik masalalarini ham tahlil qilishda juda kerakli statestik ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Ta'lim tizimig xalqaro baholash tadqiqotlarining kirib kelishi XX asr o'rtalariga to'g'ri kealdiladi. 1958-yilda bir qator Yevropa davlatlari va AQSH tomonidan Gamburg shahrida IEA (xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi) ga asos solindi.

Mazkur uyushma davlatga aloqador bo'lgan ilmiy tashkilot hisoblanar edi.

Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi tuzulgunga qadar ham turli xil davlatlarda ta'limni tadqiq etuvchi omillar o'quv jarayonini ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy jihatdan tadqiq etib chiqishgan. 1960- yilda Xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyushmasi (IEA) tomonidan birinchi xalqaro taqqoslash tadqiqotlari o'tkazila boshlandi. 1964-yilda xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish uyusmasi tomonidan xalqaro matematika fani bo'yicha baholash tadqiqoti

FIMS (The First inter national mathematic study) o'tkazildi. . Mazkur baholash tadqiqotining asosiy tashkilotchilaridan biri-Germaniya xalqaro pedagogic tadqiqotlar institute (DIPFDeutsche Institui fu'r inter nationale Pedagogische Fovschung) bo'ldi. Ushbu baholash dasturi 7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan (7,1-14)

1966-yildan 1973-yilgacha 21 ta davlat ishtirokida dunyoga ta'lim bo'yicha mashhur, jumladan. Y.B Karoll (J.B.Caroll) singari olimlar tashabbusi bilan "Oltita fanlar bo'yicha tadqiqot" o'tkazildi. Mazkur baholash dasturida 6 fanlar tabiiy fanlar, adabiyot, o'qish ingliz tili, fransuz tillari chet tili sifatida, shuningdekm siyosiy ta'llim fanlari bo'yicha baholash tadqiqoti o'tkazildi.

1990-yillar boshida esa Xalqaro ta'lim muvaffaqiytini tekshirish uyushmasi IEA tashkiloti tomonidan 9-14 yoshli o'quvchilarga mo'ljallangan sovodxonlik bo'yicha baholash tadqiqoti (Reading Letevacy Study) o'tkazila boshladi. Keyinchalik esa bu tadqiqot PIRLS baholash tadqiqotini o'tkazilishiga turtki bo'ladi.

1995-yildan buyon o'tkazilayotgan uchinchi xalqaro matematika va fan tadqiqotlari (TIMSS Third international Mathematics and Science Study) xalqaro baholash tadqiqoti har to'rt yilda xalqaro ta'lim muvaffaqiyatini tekshirish tashkiloti -----tomonidan o'tkazilib kelinadi. Mazkur tadqiqot boshlang'ich ta'lim, o'quvchilariga matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'tkaziladi.

Bugungi kunda shu kabi xalqaro tashkilotlarning ta'lim tizimida olib borilayotgan xalqaro baholash va tahlil qilishda muhim sanaladi.

Xalqaro baholash dasturlari xalqaro ta'lim tadqiqotlarida ishtirok etish ko'pgina afzalliklarga ega bo'lib, avvalo ta'limning xalqaro standart va talablariga moslashuv jarayoni yuz beradi. Ta'limning xalqaro standartlar asosida tashkil etish monitoring qilish, boshga davlatlar ta'lim tizimi va darajasi bilan solishtirish orqali ta'limdagi kamchiliklar aniqlanib bartaraf qilinadi. Xalqaro baholash dasturilari eng keng qamrovli xalqaro ta'lim tadqiqotlari hisoblanadi.

**Adabiyotlar:**

1.O'ZME Birinchi jild Toshkent 200 -yil

2.Matkarimov Akramjon Muxtorovich PISA Xalqaro o'quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsadi va vazifalari. Zamonaviy ta'lim T 2000, 8 (93)-p51- 54

3. PFSA 2009 //https// WWW olsd org/PFSA?PFSA products/ 46619755 pdfp 1-14